

**«KDB BANK O'ZBEKISTON» AJ**

**YURIDIK SHAXSLAR VA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR UCHUN BANK  
HISOBVARAQLARINI YURITISH VA BANK OPERATSIYALARINI AMALGA  
OSHIRISH SHARTLARI**

(Yangi tahrir, Bank Boshqaruvi tomonidan 2022-yil 20 dekabrdagi IMB/LGD/HO/22/96-sonli  
qarori bilan tasdiqlangan hamda 2023-yil 01 yanvardan boshlab kuchga kiradi)

**1. Ta'riflar.**

**Bank** – “KDB Bank O'zbekiston” Aksiyadorlik Jamiyatining bosh ofis va filiallari.

**Mijoz** – quyidagi shakllardan biriga ega bo'lgan tashkilot yoki shaxs: (i) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxs; (ii) norezident yuridik shaxs (tovar-xom ashyo birjalarining ochiq elektron savdolari ishtirokchisi, savdolardagi ishtiroki orqali aksiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) xorijiy investor), norezidentning O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi doimiy muassasasi, Norezidentga qarashli vakolatxona (diplomatik immunitet va imtiyozlardan foydalananadigan xalqaro tashkilot va uning filiali, diplomatik va boshqa rasmiy vakolatxona, shuningdek xorijiy tashkilotning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o'tgan vakolatxonasi); (iii) yakka tartibdagи tadbirkor, (iv) O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxsning vakolatxonasi va/yoki filiali (v) O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida hisobvaraq ochish huquqiga ega bo'lgan boshqa shakldagi korxonalar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar;

**Yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlar uchun bank hisobvarag'ini yuritish va bank operatsiyalarini amalga oshirish shartlari** (keyingi o'rinnarda «Shartlar» deb yuritiladi) – bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan va Bank hisobvarag'i shartnomasining ajralmas qismi bo'lgan ushbu hujjat, mijozning hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larni joylashtirish va hisobga olish shartlari, Mijozning hisobvarag'idagi mablag'larni tasarruf etish bo'yicha ko'rsatmalarning bajarilishi, Mijoz va Bankning ushbu harakatlar bilan bog'liq huquq va majburiyatlar, bank xizmatlari uchun to'lanadigan komissiyalar va boshqa shartlarni o'z ichiga oladi. Agar Mijoz tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimida o'rnatilgan Shartlarni qabul qilgan holda yoki bank tomonidan tasdiqlangan shaklda Bankka ariza berish orqali ushbu taklifni qabul qilmoqchi bo`lsa, Bankning bank hisobvarag'i shartnomasini tuzish taklifi bilan ushbu Shartlar bir vaqtning o'zida oferta bo'lib hisoblanadi.

**Bank hisobvarag'i shartnomasi** (keyingi o'rinnarda “Shartnoma” deb yuritiladi) – Bank va Mijoz o'rtaida tuzilgan shartnoma bo'lib, uni yozma ravishda imzolash yo'li bilan tuziladi. Shartnoma ushbu Shartlar va Bank tariflarining majmui hisoblanadi.

**Hisobvaraq** – shartnoma tuzish natijasida Mijoz uchun (yoki uning nomiga) bankda ochilgan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida va/yoki chet el valyutasida talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i (hisob-kitob yoki joriy hisobvaraq) va boshqa turdagи bank hisobvarag'i.

**Qonun hujjatlari** – mazkur Shartlarga va Shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shu jumladan qonunlar, qonunosti hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa davlat organlarining me'yoriy hujjatlari.

**Ichki nazorat qoidalari** – “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratni amalga oshirish qoidalari” (regulyator tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan), shuningdek Bankda ichki nazoratni tashkil etish va amalga oshirishni tartibga soluvchi Bankning normativ hujjatlari hisoblanadi.

**Mijozning lozim darajada tekshirilishi** (keyingi o'rinnarda «Lozim darajada tekshirish» yoki «Mijozingni bil» / «Know Your Customer») – bu mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va o'rganish bo'yicha chora-tadbirlar majmui bo'lib, bunda: mijoz va uning vakillarini shaxsini tasdiqlash va tekshirish

hamda mijozning ta'sischilari (jamiyat aksiyalarining kamida o'n foiziga ega bo'lgan aksiyadorlar, ishtirokchilar) tarkibini o'rghanish, mijozning ustav fondining (kapitalining) 10 foizidan ortiq ulushlariga ega bo'lgan shaxslarni aniqlash; Mijozning Benefisiar Mulkdoriining shaxsini tasdiqlash, mijoz tomonidan amalga oshiriladigan biznes munosabatlari va moliyaviy operatsiyalarining maqsadlari va mohiyatini, shu jumladan pul mablag'lari manbai to'g'risidagi ma'lumotlarni olish va aniqlash, ularni Bankka taqdim etilgan hujjatlarga (ma'lumotlarga) muvofiqligini tekshirish ko'zda tutiladi. Bank amaldagi qonun hujjatlari, bank me'yoriy hujjatlari, ichki nazorat qoidalari talablariga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining maxsus vakolatga ega davlat organining me'yoriy hujjatlarihamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi ("BMTXK"), Yevropa Ittifoqi ("YEI"), AQSh Departamentining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi tomonidan qabul qilingan sanksiya dasturlari ("OFAC"), Moliyaviy xizmatlar ("FSC"), Moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash agentligi ("FinCEN") va AQSh Savdo vazirligining Sanoat va xavfsizlik byurosi ("BIS") kabi tashkilotlar tomonidan qabul qilingan sanksiya dasturlari asosida Mijozni lozim darajada tekshiruvdan o'tkazadi.

**Mijozni identifikatsiya qilish** – mijozlarni o'rnatilgan tartibda tekshirish maqsadida ular taqdim etgan hujjatlar, ochiq manbalar va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan qo'shimcha tasdiqlangan ma'lumotlar asosida mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Bank tomonidan aniqlanishi.

**Lozim darajada tekshirish bo'yicha kuchaytirilgan choralar** – yuqori xavf toifasiga kiruvchi Mijoz yoki Hisobvaraqt operatsiyasiga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmui bo'lib, o'z ichiga ochiq manbalar va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan Mijoz to'g'risidagi qo'shimcha tasdiqlangan ma'lumotlarni to'plash va qayd etish; Mijozdan mablag'lari manbasi yoki tasarrufidagi boshqa mol-mulk to'g'risida ma'lumot olish; Hisobvaraqt orqali rejalashtirilgan yoki amalga oshirilgan operatsiyalarning maqsadlarini o'rghanish; Hisobvaraqt orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha doimiy monitoring qilib borish kabilarni oladi.

**Mijozning vakili** – bu mijoz tomonidan berilgan ishonchnoma yoki shunga o'xshash boshqa hujjat asosida mijoz nomidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi vakolatli shaxs.

**Benefisiar mulkdor** – bevosita yoki bilvosita egalik huquqiga ega bo'lgan yoki Mijozni nazorat qiladigan va uning manfaatlarini ko'zlab pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxs.

**Mijoz so'rvnomasi (Know Your Client (KYC) shakli)** – Mijozni lozim darajada tekshirish jarayonida to'plangan mijoz to'g'risidagi ma'lumot.

**Amaliyot kuni** – bank ish kunining vaqt bilan chegaralangan qismi bo'lib, unda bank operatsiyalari, shuningdek, pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya ma'lumotlarini tegishli tizimda aks ettirish ishlari amalga oshiriladi. Operatsiya kunining davomiyligi bank tomonidan taqdim etiladigan valyutalar va xizmat turlari bo'yicha hamda ushbu xizmatlarni ko'rsatish jarayonida Mijozlar va Bank o'rtasidagi o'zaro aloqa kanallari nuqtai nazaridan ham belgilanishi mumkin. Operatsion kunning davomiyligi haqidagi ma'lumotlar «Internet Banking iDBA» tizimiga joylashtirish orqali Mijozlarga ma'lum qilinadi.

**Ish kuni** – bank ish faoliyatini amalga oshirish uchun ochiq bo'lgan kunlar.

**Bank tariflari** – Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan va Rasmiy veb-saytida joylashtirilgan bank xizmatlari va mahsulotlari uchun belgilangan tariflar.

**Rasmiy veb-sayt** – Bankning Internetdagagi quyidagi manzil bilan kiruvchi rasmiy veb sahifasi: <https://kdb.uz>.

## 2. Umumiq qoidalar.

- 2.1 Ushbu Shartlar standart bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Hisobvaraqt ochish va bank operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi hamda Shartnomadagi har ikki tomon (keying o'rnlarda «Tomonlar») uchun ham majburiydir.

- 2.2 Hisobvaraqlari ochish, qayta rasmiylashtirish, yopish, bank operatsiyalarini amalga oshirish va Hisobvaraqlari bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun Bank tomonidan haq (xizmatlar uchun belgilangan komissiya qiymati) undirish tartibi Qonun hujjatlari, Bankning normativ hujjatlari, Bank tariflari va ushbu Shartlar bilan belgilanadi.
- 2.3 Mijoz tomonidan Shartnomaning imzolanishi mijoz uchun quyidagilarni anglatadi:
- ushbu Shartlar va Shartlarning barcha qoidalari, shuningdek, Bank Tariflari olgan, o'qib chiqqan va ular bilan rozi bo'lgan;
  - bank hisobvaraqlarini ochish, qayta rasmiylashtirish, yopish tartibini tartibga soluvchi qonun hujjatlari qoidalari bilan tanishib chiqqan;
  - hisob-kitob va kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibini tartibga soluvchi qonun hujjatlari qoidalari bilan tanishgan.
- 2.4 Mijozning tadbirkorlik sub'ektlarini<sup>1</sup> davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimidan foydalangan holda Bankda bank hisobvarag'ini ochish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirishi Shartnoma shartlarini qabul qilganligini va Mijozning Shartnomani tuzish istagini bildiradi.
- 2.5 Bank ushbu Shartlarga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish va ularni yangi tahrirda tasdiqlash, shuningdek, tariflarni o'zgartirish va yangi tahrirda tasdiqlash huquqiga ega. Bunda Bank kiritilgan o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 kalendar kuni avvalroq bu haqida o'z rasmiy veb-saytida, shuningdek Bank filiallaridagi axborot stendlarida tegishli ma'lumot joylashtirish orqali xabardor qilishi shart.
- 2.6 Ayrim bank xizmatlari hamda ular uchun belgilangan foiz stavkalari va tariflari alohida kelishuvlar va shartlar bilan tartibga solinishi mumkin, kelishmovchiliklar (tushunmovchiliklar) yuzaga kelgan taqdirda, ushbu alohida kelishuvlar va shartlar amal qiladi.
- 2.7 Hisobvaraqlari yuritish va bank operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha bank majburiyatlarini "KDB Bank O'zbekiston" AJ o'z zimmasiga oladi.

### **3. Hisobvaraqlari ochish va yuritish.**

- 3.1 Bank mijozga quyidagi hollarda hisobvaraqlari ochadi:
- barcha kerakli hujjatlarni taqdim etilishi bilan bir qatorda Shartnoma imzolanganidan so'ng yoki
  - tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimiga joylashtirilgan Shartlarning qabul qilinishi natijasida.
- 3.2 Hisobvaraqlari ochish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ro'yxati Qonun hujjatlari va Bank me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq Bank tomonidan belgilanadi. Qonun hujjatlari yoki Bankning ichki hujjatlari o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, Bank Hisobvaraqlari ochish va yuritish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritishga haqli. Hisobvaraqlari ochish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ro'yxati Bank rasmiy veb-saytida, shuningdek, Bank filiallaridagi axborot stendlarida e'lon qilib boriladi.
- 3.3 Hisobvaraqlari ochish qonun hujjatlari nazarda tutilgan muddatdan kechiktirilmagan holatda Mijoz lozim darajadagi tekshiruvdan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng amalga oshiriladi.
- 3.4 Bank quyidagi hollarda mijozga Hisobvaraqlari ochishni rad etishga haqli:
- mijoz tomonidan hisobvaraqlari ochish uchun qonun hujjatlari va bank me'yoriy hujjatlari nazarda tutilgan hujjatlarning to'liq to'plamini taqdim etmaslik;
  - mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi nomuvofiqliklar yoki noaniqliklarning aniqlanishi;
  - jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari va turli sanksiya dasturlariga muvofiq, shuningdek, «Xorijiy hisobvaraqlarni soliqqa tortish to'g'risida»gi (FATCA) AQSh qonuni bo'yicha o'rganilishi talab qilinadigan mijozlar ro'yxatiga

<sup>1</sup> Hisobvaraqlari ochish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ro'yxati Bankning rasmiy veb-saytida, shuningdek, Bank filiallaridagi ma'lumotlar taxtalarida joylashtirilgan.

kirgan taqdirda mijozning lozim darajada tekshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etmasligi;

- agar Bankda operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror yoki Mijozning boshqa banklarda ochilgan Hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa, shuningdek, Bankda yangi Hisobvaraqlar ochishni taqiqlash to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa;
- agar mijozga nisbatan sanktsiyalar qo'llanilgan bo'lsa yoki sanksiyalar qo'llanilishi xavfi mavjud bo'lsa;
- qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

#### **4. Korrespondentsiya.**

- 4.1 Korrespondentsiya bu o'zaro aloqa bo'lib, hisobvaraq orqali amalga oshirilgan kirim-chiqimlar bo'yicha ma'lumotnomadan ko'chirmalar va/yoki Hisobvaraqqo oid boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bank va Mijoz o'rtasida pochta qutisi ijarasi bo'yichashartnoma (keyingi o'rnlarda pochta qutisi ijarasi shartnomasi) mavjud bo'lgan taqdirda, Bank pochta qutisiga korrespondensiyani yoki yozishmalarni yuboradi. Pochta qutisini ijarasi shartnomasi bo'lмаган taqdirda, Bank korrespondensiyani olti oy davomida o'zida saqlaydi. Bunda mas'uliyat va korrespondensiyani olmaslik bilan bog'liq barcha mumkin bo'lgan xavflar mijozning zimmasida bo'ladi.
- 4.2 Bank Mijozga Hisobvaraq bo'yicha debet/kredit aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotni mijozning so'rovi asosida belgilangan ma'lum bir davriy oraliq uchun ko'chirma shaklida taqdim etadi. Ko'chirmalarning davriy oraliq muddati istalgan vaqtida o'zgartirilishi mumkin. Ko'chirmalarning berilishi hisobvaraq bo'yicha ma'lum bir bank operatsiyalari amalga oshirilganligini bildiradi.
- 4.3 Agar ko'chirmada to'lovni tasdiqlovchi rekvizitlar mavjud bo'lsa, Bank ko'chirmalarga hisobvaraqlar orqali pul mablag'larining kirim yoki chiqim qilinganligini tasdiqlovchi maxsus ilova taqdim qilish majburiyatini olmaydi.
- 4.4 Qog'oz shaklda taqdim etiladigan ko'chirmalar mijozning so'rovi asosida shakllantiriladi, maxsus blankada chop etiladi, Bank vakolatli shaxs(lar)ining imzosini talab qilmaydi va Bank muhri bilan tasdiqlanmaydi, biroq ayni paytda muayyan operatsiya(lar)ni tasdiqlaydi. Mijozning alohida yozma arizasi asosida Bank tomonidan qog'oz shaklda taqdim etiladigan ko'chirmalar vakolatli shaxsning imzosi va Bank muhri bilan tasdiqlanishi mumkin.
- 4.5 Hisobvaraq bo'yicha ko'chirmalar ko'chirmalarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslargagina berilishi mumkin (masalan, imzo kartasida ko'rsatilgan shaxslar, mijozning ishonchnoma asosidagi vakili yoki vakillari).
- 4.6 Mijoz bankdan olingen korrespondensiyani darhol tekshirishi zarur. Mijoz qandaydir xatoliklarni va/yoki amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha kamchiliklar mavjudligini aniqlasa, bu haqida zudlik bilan Bankni xabardor qilishi shart.
- 4.7 Agar Mijoz Bankdan qabul qilib olingen korrespondensiya bo'yicha Bank tomonidan yuborilgan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida Bankka hech qanday qarshilik bildirmasa, mijoz korrespondensiya va uning mazmunini ma'qullagan deb hisoblanadi.

#### **5. Hisobvaraqnini yuritish.**

- 5.1 Mijoz Hisobvaraqdan qonun hujjatlari va ushbu Shartlar talablariga muvofiq bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalanadi.
- 5.2 Hisobvaraqnini yuritish Bankka yozma ko'rsatmalar berish orqali rekvizitlari va imzolari Mijoz tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan va Bankka taqdim qilingan, Mijozning imzo namunalari va muhrini o'z ichiga oladigan maxsus kartaga (keyingi o'rnlarda «Imzo namunalari kartasi») kiritilgan shaxslar tomonidangina amalga oshirilishi mumkin. Hisobvaraqnini yuritish bo'yicha yozma ko'rsatmalar, Mijoz tomonidan tasdiqlangan maxsus blankalarda (agar shunday

blankalar mavjud bo'lsa) taqdim qilinishi zarur. Vakolatli shaxslarning imzolari bankka taqdim etilgan imzo namunalari kartasidagi imzolarga o'zaro mos kelishi va albatta shaxsan imzolangan bo'lishi kerak.

- 5.3 Tadbirkorlik subyektlarini<sup>2</sup> davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali ochilgan hisobvaraqtin yuritish Bankka ikki nusxada imzo namunalari kartasi, shuningdek Mijoz nomidan pul hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega vakolatli shaxsning shaxsini tasdiqllovchi hujjat (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjat) asl nusxasi taqdim etilganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin.
- 5.4 Hisobvaraqtin yuritish, agar Bankning masofaviy bank tizimlaridan (masalan, "Internet Banking iDBA" tizimi) foydalanishda Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tegishli kelishuv mavjud bo'lsa, elektron shaklda ko'rsatmalar (yo'riqnomalar) taqdim etish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

## **6. Hisobvaraqtin bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi.**

- 6.1 Bank quyidagilarni ijro uchun qabul qilmaydi:

- to'ldirilmagan yoki mijoz tomonidan imzolanmagan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan to'lov hujjatlari;
- tuzatishlarni o'z ichiga olgan to'lov hujjatlari;
- Mijozning lozim darajadagi tekshiruvdan o'tmagan topshiriqnomalar (ko'rsatmalar) bo'yicha to'lov hujjatlari;
- qonun hujjatlarini buzilishiga olib keladigan operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risidagi ko'rsatmalar, shuningdek qonun hujjatlarida va Bankning normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda. Bank bunday ko'rsatmalarning rad qilinishi ortidan vujudga keladigan yoki kelishi mumkin bo'lgan zarar va yo'qotishlar uchun javobgar bo`lmaydi.

- 6.2 Mijoz Bankka hisobvaraqtin bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish, Hisobvaraqtin bo'yicha xizmat ko'rsatishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, shuningdek, qonunchilik hujjatlari bilan Bank zimmasiga yuklangan boshqa funksiyalarni bajarish uchun kerak bo'lgan barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish majburiyatini oladi. Bunday hujjatlar va ma'lumotlar aniq, to'liq va ishonchli bo'lishi lozim.

- 6.3 Mijoz sanktsiyalar dasturlariga kiritilgan shaxslar bilan o'z faoliyatini amalga oshirmslik majburiyatini oladi. Tegishli banklar tomonidan mablag'lar muzlatilgan yoki bloklangan taqdirda, Mijoz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli ruxsatnomalar/litsenziyalar olish yo'li bilan yuzaga kelgan vaziyatni hal qilish uchun to'liq javobgar bo`ladi.

- 6.4 Bank korrespondentlar, subagentlar va boshqa uchinchi shaxslarning kamchiliklari va xatolari sababli, shu jumladan uchinchi shaxslarning noto'g'ri harakatlari yoki umuman harakatsizligi tufayli Sharhnomani bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilmaganligi yoki nomuvofiq bajarilganligi uchun, agarbu majburiyatlarni bajarishda zaruriy ehtiyyotkorlik bilan harakat qilganini isbotlay olsa, javobgar bo`lmaydi.

- 6.5 Bank jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qurollarni tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini talablarini bajarish maqsadida mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar ustidan tegishli choralar ko'rishga haqli.

- 6.6 Bank qonun hujjatlariga muvofiq Mijozdan u tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarning asoslilagini va qonuniyligini tasdiqllovchi har qanday hujjatlarni, shu jumladan jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ishlab chiqilgan qonun hujjatlariga muvofiq, Mijoz tomonidan amalga oshirilgan yoki oshirilayotgan yirik ahamiyatga molik harakatlar yuzasidan, shuningdek, turli

<sup>2</sup> Hisobvaraqtin ochish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati Bankning rasmiy veb-saytida, shuningdek, Bank filiallaridagi ma'lumotlar taxtalarida joylashtirilgan.

sanksiya dasturlari va yoki «Xorijiy hisobvaraqlarni soliqqa tortish to'g'risida»gi (FATCA) AQSh qonuni bo'yicha o'rganilishi talab qilinadigan mijozlar ro'yxatiga kirgan taqdirda mijozni o'rganish uchun maxsus nazoratga olinadigan moliyaviy operatsiya(lar)ni o'rganish va ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lган hujjatlarni talab qilishga haqli. Bunday hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Bank Mijozning hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishni rad etishga haqli, bu haqda to'lov bo'yicha ko'rsatmalar olinganidan so`ng, keyingi ish kunidan kechiktirmagan holatda mijozni xabardor qilishi shart.

- 6.7 Bank mijozga hisobvaraq bo'yicha xizmatlarni va/yoki kassa xizmatlarini ko'rsatishda qonun hujjatlari va ushbu Shartlarga muvofiq o'z vakolatlari doirasida tashqi savdo shartnomalari va invoyslarning bajarilishi ustidan tegishli nazoratni ta'minlash maqsadida monitoring funksiyalarini amalga oshiradi.
- 6.8 Agar Bank Hisobvaraq orqali amalga oshirilgan operatsiyalarda o'zi tomonidan yo'l qo'yilgan xatolikni aniqlasa, Bank bu haqda Mijozni darhol xabardor qilishi shart. Bank mijozning oldindan roziligesiz hisob-kitoblarga tuzatishlar kiritishga haqli. Bu kabi xatoliklarni tuzatilishu natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun Bank javob bermaydi, bunda Bankning qo'pol beparvoligi natijasida yuzaga kelgan holatlar mustasno.

## **7. Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar.**

- 7.1 Shartnoma doirasida Bank quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:
- mijozning hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini qabul qiladi va kirim qiladi.
  - mijozning ko'rsatmalariga muvofiq Hisobvaraqdagi qoldiq doirasida to'lovlar va pul o'tkazmalarini amalga oshiradi. Tegishli Hisobvaraqdha pul mablag'lari yetarli bo'lмаган taqdirda, Bank Mijozning to'lov hujjatini rasmiylashtirishni rad etishga haqli.
  - Mijozning hisobvarag'i bilan bog'liq Qonun hujjatlarida yoki ushbu Shartlarda nazarda tutilgan boshqa bank operatsiyalarini va funksiyalarini amalga oshiradi;
  - mijozning iltimosiga ko'ra, unga tegishli hisobvaraq bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida xabardor qiladi.
- 7.2 Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar, agar mijoz bilan boshqacha kelishuv bo'lmasa yoki qonun hujjatlarida va ushbu Shartlarda nazarda tutilmagan bo'lsa, amaliyot kuni davomida amalga oshiriladi.

### **Hisobvaraqdan pul mablag'larini chiqarish.**

- 7.3 Bank qabul qilib olingan to'lov hujjatlari asosida Mijozning topshiriqnomasi (ko'rsatmasi) bo'yicha tegishli hisobvaraqdan pul mablag'lari yechilishini ta'minlaydi. Bunda Bank tomonidan hisobvaraqla yanglishmovchilik yoki noto'g'ri kirim qilingan pul mablag'lari aniqlanishi oqibatida bu mablag'larning hisobdan chiqarish hollari mustasno.
- 7.4 Hisobvaraqdan pul mablag'larining chiqarilishi faqat Mijozning roziligi bilan amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida va ushbu Shartlarda nazarda tutilgan ayrim hollar bundan mustasno. Shu bilan bir qatorda, Bank bunday hisobvaraqdan chiqarishlar natijasida Mijoz tomonidan yetkazilgan har qanday zarar yoki boshqa yo'qotishlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 7.5 Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazish va naqd pulni yechib olish mijozning hisobvarag'idagi mavjud qoldiq doirasida amalga oshiriladi. «Mavjud qoldiq» - mijozning Hisobvarag'idagi bo'sh pul mablag'lari, ular hisobvaraq bo'yicha bank operatsiyasini amalga oshirish vaqtida muzlatish, talablar, yuklamalar va boshqa cheklar uchramaydi. Mijozning hisobvarag'ida pul mablag'i yetarli bo'lmasa, Bank mijozning topshiriqnomasini (ko'rsatmasini) bajarishni rad etishga haqli. Bank Mijozning to'lovni qisman amalga oshirish bo'yicha topshiriqnomalarini (ko'rsatmalari) o'tkazmaslik huquqiga ega.

- 7.6 Mijozning hisobvarag'ida yetarli pul mablag'i mavjud bo'lган taqdirda, agar Bank va Mijoz o'rtasida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, mablag'larning hisobvaraqdan chiqarilishi Bankka topshiriqlar (ko'rsatmalar) kelib tushishi tartibida amalga oshiriladi.
- 7.7 Qonun hujjatlari talablariga asosan uchinchi shaxslarning to'lov talabnomalari va inkasso topshiriqnomalari Bank tomonidan akseptsiz (agar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa yoki Bank va Mijoz o'rtasida o'zaro kelishilgan bo'lsa) ravishda ijro uchun qabul qilinadi.
- 7.8 Uchinchi shaxslarning to'lov talabnomalari yoki inkasso topshiriqnomalari bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish uchun hisobvaraqaqda yetarli pul mablag'lari bo'lmasa, u holda Bank qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish tutadi.
- 7.9 Bank Mijozning buyrug'i (ko'rsatmasi)siz Bank Tariflariga muvofiq Bank tomonidan ko'rsatilgan operatsiyalar va xizmatlar uchun Bankka to'lanadigan haq miqdorini tegishli Hisobvaraqdan yechib olish huquqiga ega.
- 7.10 Qonun hujjatlarida va Bankning me'yoriy hujjatlarida, shuningdek, ichki nazorat qoidalarida nazarda tutilgan hollarda Bank Mijozning hisobvaraqdan pul chiqarish bo'yicha ko'rsatmasi (buyurug'i)ni rad etishga haqli.

### **Hisobvaraqa pul mablag'larini kiritish.**

- 7.11 Bank Mijozning hisobvarag'iga naqd bo'lмаган shaklda yoki Bank kassasi orqali naqd shaklda kelib tushgan pul mablag'larini Qonun hujjatlarida va Bank me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda kirim qiladi.
- 7.12 Mijozning hisobvarag'iga Mijoz tomonidan kutilmagan yoki kelib tushmasligi kerak bo'lган mablag'lar kirim qilingan taqdirda, Mijoz bu haqda bankka kirim qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmagan holda xabar berishi shart.
- 7.13 Hisobvaraq bo'yicha hisoblangan foiz to'lovlarini o'tkazish Bank va Mijoz o'rtasidagi alohida ma'lum bir shartnoma bo'yicha amalga oshiriladi. Hisobvaraq bo'yicha hisoblangan foiz to'lovlarining kirim qilinishi Bank Tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 7.14 Qonun hujjatlarida va Bankning me'yoriy hujjatlarida, shuningdek, ichki nazorat qoidalarida nazarda tutilgan hollarda Bank Mijozning hisobvarag'iga naqd bo'lмаган shaklda yoki Bank kassasi orqali naqd shaklda kelib tushgan pul mablag'larini kirim qilinishini rad etishga haqli.

## **8. Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish muddatlari.**

- 8.1 Mijozning O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi qog'ozda Amaliyat kunida ijroga qabul qilingan buyurtmalari/ko'rsatmalar Bank tomonidan ular olingan kunida bajariladi (valyuta muddati kechiktirilgan buyurtmalar/ko'rsatmalar bundan mustasno).
- 8.2 Mijozning "Internet-banking iDBA" tizimi orqali elektron shaklda jo'natilgan ("ANOR" to'lov tizimini tanlagen holda) va amaliyat kuni yakunlanganidan so'ng qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi topshiriqnomalari/ko'rsatmalar Bank tomonidan keyingi amaliyat kunidan kechiktirmagan holda bajariladi (bunda muddati kechiktirilgan to'lov topshiriqnomalaridan mustasno).
- 8.3 Mijoz tomonidan Bankning ishlamaydigan kunlarida "Internet Banking iDBA" tizimi ("ANOR" to'lov tizimini tanlagen holda) orqali elektron shaklda O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yuborilgan otpshiriqnomalar/ko'rsatmalar Bank tomonidan Yagona korrespondent hisobraqamlar bilan hisob-kitob markazi ochilgan amaliyat kunida, keying amaliyat kunidan kechiktirmagan holatda bajariladi ( muddati kechiktirilgan to'lov topshiriqnomalari bundan mustasno).
- 8.4 Xorijiy valyutadagi topshiriqnomalar/ko'rsatmalar, Mijoz lozim darajadagi tekshiruvdan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng, qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kunidan kechiktirmagan holda Bank tomonidan bajariladi. Xorijiy valyutada pul o'tkazish to'g'risidagi ariza va/yoki konvertatsiya qilish to'g'risidagi ariza kontragent banklarning ish jadvaliga muvofiq, shuningdek

xorijiy valyuta amal qiladigan mamlakatda belgilangan dam olish va bayram kunlarini inobatga olgan holda rasmiylashtiriladi.

- 8.5 Bank Mijozning naqd pul mablag'larini Bank cassasi orqali kassaning ish vaqtiga muvofiq amaliyot kuni davomida qabul qiladi va shu kunning o'zida Mijozning Bankda ochilgan hisobvarag'iga o'tkazadi. Bank Mijozning hisobvarag'iga kiritilgan naqd pul mablag'larini, agar mijozning iltimosiga ko'ra bunday o'tkazma amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi Bitim kunidan kechiktirmay Mijozning boshqa bankdagi hisob raqamiga o'tkazadi. Dam olish va bayram kunlarida inkasso xizmati orqali Bank kassasiga naqd pul mablag'lari qabul qilingan taqdirda, Bank bu mablag'larni keyingi amaliyot kunidan kechiktirmagan holda Mijozning tegishli hisobvarag'iga tushirib beradi. Bank milliy valyutadagi naqdsiz shaklda kelib tushgan pul mablag'larini Mijozning tegishli hisobvarag'iga o'sha amaliyot kunining o'zida kirim qiladi.
- 8.6 Xorijiy valyutada kelib tushgan pulmablag'lari Mijozning Tegishli hisobvarag'iga uning lozim darajadagi tekshiruvdan muvaffaqiyatlil o'tganidan so'ng, amaliyot kuni davomida quyidagi vaqtarda kirim qilinadi:
- mijozning Bankda ochilgan boshqa hisobvaraqlaridan kelib tushgan pul mablag'lari – amaliyot kuni davomida;
  - Korrespondent banklarning to'lov topshiriqnomalari asosida SWIFT tarmo'gi orqali kelish tushgan pul mablag'lari Mijozning tegishli hisobvarag`iga keyingi ish kunidan kechiktirmagan holatda o'tkazib beriladi.

## **9. Abonent qutisi.**

- 9.1 Agar abonent qutisini ijaraga olish shartnomasi mavjud bo'lsa, Bank mijozga bankdan xat-xabarlarni olishda foydalanish uchun abonent qutisi (keyingi o'rinnlarda "Abonent qutisi" deb yuritiladi) ajratadi. Bank mijozga Abonent qutisini ijara shartnomasida ko'rsatilgan manzilda va bank binosiga kirish uchun belgilangan ish kunlari va vaqt davomida foydalanilishini ta'minlaydi.
- 9.2 Bank Mijozga Abonent qutisining kalitini belgilangan depozit evaziga taqdim etadi, bu depozit Abonent qutisining kaliti Bankka qaytarilgandan so'ng, Bank tomonidan qaytariladi. Kalitning boshqa nusxalari Bankda saqlanadi, Mijoz kalitni uchinchi shaxs(lar)ga bermasligi kerak.
- 9.3 Mijoz Abonent qutisidan faqatgina belgilangan maqsadda foydalanishni o'z zimmasiga oladi, unda Abonent qutisi mijozga berilgan maqsadlarga mos kelmaydigan hujjatlar yoki buyumlarni saqlamaslik majburiyatini oladi.
- 9.4 Abonent qutisini ijaraga olish uchun to'lov har oy Bank tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 9.5 Abonent qutisidan foydalanish uchun javobgarlik Mijozning zimmasida bo'ladi. Bank tomonidan Abonent qutisiga har qanday xat-xabarlarning yetkazib berilishi Mijozning Bank tomonidan bu xat-xabarlar bo'yicha yetarlicha xabardor qilinayotganligini bildir adi.

## **10. Bank xizmatlari uchun to'lov.**

- 10.1 Mijoz Bank Tariflariga muvofiq (va shartnoma(lar)ga muvofiq, qaysiki agarda Bank va Mijoz o'rtasida alohida shartnomalar tuzilgan bo'lsa) Bankka komissiya to'lash majburiyatini oladi.
- 10.2 Agar mijozning topshiriqnomasini/ko'rsatmasini bajarayotganda yoki hisobvaraq bo'yicha bank operatsiyasini amalga oshirishda bank komissiyasini to'lash (qoplash) uchun yetarli mablag` bo'lmasa, Bank mijozning topshiriqnomasini/ko'rsatmasini bajarishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 10.3 Bank Mijozning hisobvarag'idan komissiya to'lovi miqdoridagi mablag'larni Bankning Tariflariga muvofiq oldindan ogohlantirmsadan va mijozning topshirig'i/ko'rsatmasiz yechib olish huquqiga ega.
- 10.4 Chet el valyutasidagi hisob-kitob-kassa xizmatlari operatsiyalari uchun to'lov, agar Bank tariflarida boshqacha qoida nazardautilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining operatsiyalar amalga oshirilgan kundagi kursi bo'yicha milliy valyutada amalga

oshiriladi. Mijozning hisobvarag‘ida milliy valyutadagi mablag‘ yetarli bo‘lmaganda yoki komissiyani milliy valyutada ushlab turish imkonini bo‘lmanan taqdirda, Bank mijozning boshqa valyutadagi hisobvaraqlaridagi komissiya summasini qoplash uchun mablag‘larni hisobdan chiqarishga haqli, agar qonun hujjalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining operatsiya qilingan kundagi kursi bo‘yicha yechiladi, bunda Qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lishligi mustasno.

- 10.5 Bank komissiyasini to’lash shartlari va tartibi ushbu Shartlar, Bank Tariflari, Shartnomaga qo’shimcha kelishuvlar yoki alohida shartnomalar bilan belgilanadi. Agar komissiya to’lovini to’lash muddati Bank Tariflarda yoki Shartnomaga alohida biriktirilgan/qo’shimcha kelishuvda belgilanmagan bo’lsa, u holda komissiya to’lovi bitim tuzilgan yoki xizmat ko’rsatilgan kuni to’lanishi lozim.
- 10.6 Bank tariflarda belgilangan oylik komissiya to’lovi oyning oxirgi ish kunidan 1 (bir) kun avval avtomatik tarzda yechib olinadi. Shartnoma taqvim oyining 15-kuniga qadar (15-kuni ham kiradi) bekor qilingan taqdirda oylik ish haqi ushlab qolinmaydi. Taqvim oyining 15-kunidan keyin Shartnoma bekor qilinganida esa oylik ish haqi to’liq to’lanishi kerak.
- 10.7 Bank hisobvaraqqdan ko’chirmaga komissiya to’lovlarini undirilganligini tasdiqlovchi ma’lumotlarni kiritish majburiyatini oladi.

## **11. Ichki nazorat.**

- 11.1 Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida bank hisobvarag‘ini masofadan ochishda<sup>3</sup> va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ (davlat xizmatlari markazlari<sup>4</sup>) Mijozni lozim darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rganda, Bank mijoz bilan mustaqil ravishda tadbirkorlik munosabatlarini o‘rnatishga qaror qiladi. Xatarlar va mijozning o‘zining tegishli tekshiruvi natijalari asosida.
- 11.2 Bank qonun hujjalarda va Bankning me’yoriy hujjalarda belgilangan hollarda, shuningdek, ichki nazorat qoidalariga muvofiq bir tomonlama tartibda Mijozning operatsiyalarini vaqtinchada to’xtatib qo’yish yoki Hisobvaraqdagi mablag‘larni blokirovka qilish (muzlatish), Mijozga xizmat ko’rsatishni rad etish, Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.
- 11.3 Bank xizmat ko’rsatish muddati davomida va muayyan hodisalar/holatlar yuzaga kelgan taqdirda davriy ravishda barcha mijozlarini lozim darajada tekshirish huquqiga ega. Bank, shuningdek, mavjud holatlardan kelib chiqib, Bank qonunlari va me’yoriy hujjalarda belgilangan tartibda kuchaytirilgan tekshiruv choralarini ko’rish huquqiga ega.
- 11.4 Mijoz Bankning talabiga binoan qonun hujjalarda nazarda tutilgan funktsiyalarni bajarishi uchun zarur bo‘lgan asosli hujjalarni (ma’lumotlarni), shu jumladan, lozim darajada tekshirish uchun so’ralgan hujjalar va ma’lumotlarni, shuningdek Hisobvaraq bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonun hujjalari normalari va ichki nazorat qoidalariga muvofiqligini tekshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjalarni (ma’lumotlarni) darhol taqdim etish majburiyatini oladi. Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjalarning (ma’lumotlarning), shu jumladan Mijoz so’rovnomasidagi (KYC shakli) ma’lumotlarning ishonchliliga shubha tug’ilsa, u holda Bank Mijozni qaytadan lozim darajada tekshirishdan o’tkazadi.
- 11.5 Agar Mijoz qonun hujjalari va Bankning normativ hujjalari talablarini bajarish va ularga rioya qilish, shu jumladan, lozim darajada tekshirishdan o‘tkazish maqsadida Bank tomonidan so’ralgan ma’lumotlar va hujjalarni taqdim etmasa, Bank mijozning topshiriqlarini bajarishni rad etishga haqli.
- 11.6 Mijoz yoki uning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalari sanksiya ta’sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo‘lganda, Bank quyidagi huquqlarga ega hisoblanadi: operatsiyalarni

<sup>3</sup> Masofaviy hisobvaraq ochish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga (masalan, ta’sischilar O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagisi tadbirkorlar) nisbatan qo’llaniladi.

<sup>4</sup> Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ro‘yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimi.

o‘rganish maqsadida mijozdan qo‘sishimcha ma’lumotlarni so‘rash; operatsiyalar miqdorini chegaralash; operatsiyalarni cheklash (rad etish) yoxud Mijoz so‘rovnomasida (Know Your Client (KYC) shakli) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga mos kelmaydigan moliyaviy operatsiyalarni amalgalashirishni, shuningdek hisobvaraq ochishni rad etish va Mijoz bilan shartnomani bir tomonlama bekor qilish.

## **12. Hisobvaraqnini yopish.**

- 12.1 Mijoz Bankni oldindan yozma xabardor qilish (kamida 3 (uch) ish kuni avval) sharti bilan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday xabarnomaning muddatidan kelib chiqqan holda Mijozning barcha to‘lov majburiyatlarining muddati tugaydi va ular to‘lanishi lozim bo‘ladi.
- 12.2 Hisobvaraqlar Mijozning tashabbusi bilan qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib Bank tomonidan tuziladigan ro‘yxat bo‘yicha hujjatlarning taqdim etilishi yo‘li bilan yopilishi mumkin.
- 12.3 Agar Mijozning Bank oldida joriy yoki muddati o‘tgan qarzi bo‘lsa, va bunda Mijozning Bankda Hisobvaraqa egalik qilishi tomonlar o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnoma(lar) doirasida bo‘lsa ham, Mijoz bu qarzni to‘liq to‘lamagunicha Bank Hisobvaraqnini yopilishini rad etishga haqlidir.
- 12.4 Shartnoma ushbu Shartlarning 17.3, 17.4, 17.5 - bandlarida nazarda tutilgan hollardagi Mijozni tegishli ravishda xabardor qilish tartibiga rioya qilgan holda Bankning talabiga binoan suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin:
  - oxirgi 12 (o‘n ikki) oy davomida Hisobvaraqa pul mablag’lari bo‘lmaganda va (yoki) undagi mavjud mablag’lar bo‘yicha hech qanday operatsiyalar amalga oshirilmaganda. Shu bilan birga, Hisobvaraqdagi mablag’larga band solish, Hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to’xtatib turish muddati ushbu muddatga kiritilmaydi;
  - ushbu Shartlarning 11.2, 11.6 va 16.7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda;
  - mijoz noto‘g’ri yoki haqiqiy bo‘lmagan hujjatlar (ma’lumotlar) taqdim etgan bo‘lsa;
  - mijoz tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g’risidagi qonunchilikka muvofiq Mijozning moliyaviy operatsiyasi ishtirokchilarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni (ma’lumotlarni) taqdim etmasa, shuningdek Mijoz tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishini moliyalashtirishdagi ishtiroki bo‘yicha ma’lumot aniqlansa;
  - Mijoz tomonidan ushbu Mijozning AQSH ga tegishli “Xorijiy hisobvaraqlarda soliqqa rioya qilish to‘g’risida”gi qonuni (FATCA) ta’siri doirasiga taalluqlilagini tekshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar (ma’lumotlar) taqdim etilmasa;
  - agar Mijoz ushbu Shartlarda qayd etilgan majburiyatlarni bajarmasa;
  - qonun hujjatlarida yoki ushbu Shartlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

### ***Shartnomani bekor qilish Mijozning hisobvarag‘ini yopish uchun asos bo‘ladi.***

- 12.5 Bank Mijozning xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yagona davlat reyestridan chiqarilishi to‘g’risida ma’lumot olgandan so‘ng, unga xabar bermasdan, Hisobvaraqnini suddan tashqari bir tomonlama yopish huquqiga ega.
- 12.6 Mijoz va Bank biron-bir sababga ko‘ra Shartnomani bekor qilgandan so‘ng, yuzaga kelgan, lekin Shartnomani bekor qilish vaqtida to‘liq bajarilmagan barcha topshiriq va majburiyatlarni to‘liq bajarishlari shart. Mijoz, Bankning Mijozga qarshi bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha da‘volarini qoplash talabi bilan chiqish huquqiga ega ekanligiga rozilik bildiradi. Agar qolgan ba’zi majburiyatlarning (masalan, bank kafolati, ochiq akkreditiv va boshqalar) xususiyatiga ko‘ra Bankning javobgarligini tugatish mumkin bo‘lmasa, Mijoz Bank talabiga binoan tegishli ta’minotni taqdim etishi shart.
- 12.7 Mijoz va Bank o‘rtasida mayjud bo‘lgan barcha majburiyatlar bajarilganidan so‘ng, 3 (uch) ish kuni ichida Mijozning yozma ko‘rsatmasi bo‘yicha Hisobvaraqdagi qoldiq summa Bankdagidan yoki

boshqa bankdagi tegishli hisobvaraqla o'tkaziladi yoki agar qonun hujjatlarida ruxsat etilgan bo'lsa naqd to'lab beriladi.

### **13. Ma'lumotlarni taqdim etish.**

- 13.1 Bank Mijoz, uning iqtisodiy faoliyati yoki unga tegishli hisobvaraqla bo'yicha har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxs(lar)ga oshkor qilishi mumkin emas. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
- 13.2 Ma'lumotlarni taqdim qilish qonunchilik tomonidan ruxsat etilgan ayrim hollarda, Bank alohida so'rovlar asosida KDB Bank (Koreya Respublikasi) yoki uning sho'ba banklari va filiallariga mijoz to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni, shuningdek, mijoz va KDB Bank (Koreya Respublikasi) yoki uning butun dunyo bo'ylab boshqa sho'ba banklari va filiallari o'rtaqidagi tranzaksiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni shu tranzaktsiyalarni amalga oshirish maqsadida yoki "KDB Bank O'zbekiston" AJ tomonidan Mijozga ko'rsatilayotgan xizmatlar bilan bog'liq boshqa maqsadlarda taqdim qiladi.
- 13.3 Ushbu Shartlar orqali Mijoz, Bankning FSC, FSS of Korea, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki singari regulyatorlar va mahalliy tartibga solib turuvchi organlar tomonidan tartibga solib turiluvchi, o'zining bo'limnalari va tegishli kompaniyalari/banklariga ega bo'lgan KDB Bank tarmog'ining bir qismi sifatida turli pul yuvish va jinoiy faoliyatdan, terrorizmni moliyalashtirishdan, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishdan, firibgarlikdan, korruptsiyadan va boshqalardan olingan. Bank siyosati va standartlari Bank obro'sini saqlash va himoya qilishga, shuningdek, jamiyat va Mijozlarning Bankga bo'lgan ishonchiga hech qanday tarzda putur yetkazmaslikka qaratilgan. Shu sababli Bank o'zi tomonidan bajariladigan har qanday to'lov larga nisbatan mavjud holatlardan kelib chiqib o'z talablarini o'rnatadi. Biror bir to'lovning mazkur belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlangan vaziyatlarda Bank to'lov bo'yicha qo'shimcha hujjatlar talab qilishi, shuningdek, bu to'lov larni o'tkazishni rad etishi mumkin.
- 13.4 Mijoz, agar amalga oshirilayotgan operatsiyalar va to'lov hujjatlari bo'yicha g'ayrioddiylik kuzatilsa yoki asosli shubha-gumonlar paydo bo'lsa, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, firibgarlik, korruptsiya va h.k. xavfli faoliyatlarning oldini olish maqsadida KDB Bank tarmog'i yoki vakolatli davlat organlari tomonidan shunday operatsiyalar va to'lov hujjatlari bo'yicha so'ralgan qo'shimcha ma'lumotlarni zudlik bilan so'zsiz taqdim etishga roziligidini bildiradi.

### **14. Fors-major holatlari.**

- 14.1 Tomonlar ularning nazoratidan tashqarida bo'lgan Fors-major holatlari natijasida amalga oshirilmay qolgan yoki chala amalga oshirilgan majburiyatlar uchun javobgar bo'lmaydilar. Fors-major holatlari bu tomonlarning Shartnomadagi majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta'sir qiladigan, paydo bo'lishini oldindan bilish va bartaraf etish imkoniyati bo'lmaydigan turli holatlar bo'lib, ular jumlasigayong'inlar, suv toshqinlari, zilzilalar va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek urush, harbiy harakatlar, ish tashlashlar, baxtsiz hodisalar, elektr energiyasini yetkazib berishdagi uzilishlar, hukumat farmonlari va qarorlari bilan faoliyatni amalga oshirishning man etilishi, O'zbekiston Respublikasi bank tizimining ishlamay qolishi natijasida to'lov larni amalga oshira olmaslik, hisob-kitoblarning banklararo to'lov tizimining ishlamay qolishi hamda avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimidagi uzilishlar va boshqa turli hodisa va holatlar kiradi.
- 14.2 Fors-major holatlari duch kelgan va natijada Shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmagan holda yozma ravishda, sodir bo'lgan bu holatlar vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan holda xabardor qilishi shart.

14.3 Fors-major holati to'g'risida o'z vaqtida xabar bermaslik Tomonni keyinchalik bunday holatdan asos sifatida foydalana olmasligini bildiradi. Bank va Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi fors-major holatlari davomida to'xtatiladi va bu holatlar yakunlangandan so'ng darhol qayta tiklanadi.

## **15. Tomonlarning javobgarligi.**

- 15.1 Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganliklari uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 15.2 Bank Mijozning to'lov topshiriqlarini bajarmaganligi, lozim darajada bajarmaganligi, yoki o'z vaqtida bajarmaganligi uchun Qonun hujjatlari va ushbu Shartlarga muvofiq javobgar bo'ladi.
- 15.3 Bank Mijoz tomonidan hisobvaraqa qo'yilgan pul mablag'larining to'liq saqlanishi uchun javobgardir.
- 15.4 Bank Mijoz tomonidan hisobvaraqaqni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligi, shuningdek, to'lov yo'riqnomalarini to'ldirishda Mijoz tomonidan qayd qilingan ma'lumotlarning to'g'riliği va ishonchliligi uchun javobgar emas.
- 15.5 Mijoz tomonidan Bank kassasidan tashqarida va uning vakillarisiz naqd pulni qayta hisoblash natijasida yetishmovchilik aniqlangan taqdirda, Bank bu yetishmovchilik yoki yetishmovchilikni qoplash bo'yicha javobgar bo'lmaydi.
- 15.6 Bank quyidagi holatlar natijasida yuzaga kelgan to'lov topshiriqlarini bajarmaganlik, lozim bo'limgan darajada bajarganlik yoki o'z vaqtida bajarmaganlik uchun javobgar emas:
- mijoz tomonidan to'lov yo'riqnomalarining noto'g'ri rekvizitlar bilan to'ldirilishi;
  - hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi boshqa banklar va avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari tomonidan Mijozning to'lov yo'riqnomalarini lozim darajada bajarmaganligi va buzib ko'rsatganligi;
  - Bank tomonidan qo'llaniladigan texnik tizimlarning bank aybisiz sodir bo'lgan buzilishlar yoki nosozliklari;
  - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 15.7 Bank Mijozdan olingen to'lov yo'riqnomalarini tekshirish bo'yicha hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi, ularning haqiqiyligini tekshirish, to'g'ri rasmiylashtirilganligi va zarur rekvizitlarni qonun hujjatlari talablariga muvofiq to'ldirilganligi bundan mustasno, agar Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa.
- 15.8 Mijozning imzo namunalari kartasida ko'rsatilgan shaxslarning vakolati ma'lum bir sabablarga ko'ra tugatilgan yoki o'zgartirilgan bo'lsa, lekin bu haqda Bank Mijoz tomonidan o'z vaqtida xabardor qilinmagan bo'lsa, bunday holatda Mijozning joriy imzo namunalari kartasiga kiritilgan shaxslar tomonidan imzolangan topshiriqlari bajarilishi yuzasidan Bank javobgar bo'lmaydi.
- 15.9 Bank Mijozning imzo namunalari kartasiga kiritilgan vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan topshiriqlarni bajarish natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun Mijoz oldida javobgar bo'lmaydi, holbuki keyinchalik bu shaxslarning vakolatlari yoki ularni tayinlanishi (saylanishi) haqiqiy emas deb topilsa ham
- 15.10 Mijoz topshiriqlarning haqiqiyligi, undagi ma'lumotlarning to'g'riliği va Bankka o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgardir.
- 15.11 Mijoz zaruriy hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish, shu jumladan, Bank mijozni lozim darajada tekshirishi va amalga oshirilayotgan tashqi savdo operatsiyalari ustidan monitoring funksiyasini amalga oshirishi uchun talab qilinadigan hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida taqdim etishi uchun javobgardir.
- 15.12 Mijoz moliyaviy hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlardagi ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilishi va to'g'riliği uchun javobgardir.

## **16. Korruptsiyaga qarshi kurash qoidalari.**

- 16.1 Shartnama bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari: bevosita yoki bilvosita pora berish / olish, tijoriy ta'magirlik, mansabinisuiiste'mol qilish, shuningdek qonun hujjatlari, xalqaro huquq normalari va jinoyatlardan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro shartnomalar talablarini buzilishiga olib keladigan harakatlarni amalga oshirish kabilar nafaqat Shartnama ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarda, balki uchinchi shaxslar va davlat organlari bilan aloqalarda ham qat'yan taqiqlanadi. Tomonlar, shuningdek, ushbu talabni o'zlarining affillangan (manfaatdor) shaxslariga, xodimlariga, vakolatli vakillariga va vositachilarga yetkazish majburiyatini oladilar.
- 16.2 Tomonlar Shartnama tuzilgunga qadar Shartnama bilan bog'liq har qanday ish munosabatlarini o'rnatish va (yoki) kengaytirish maqsadida ishtirok etuvchi boshqa tomon(lar)ga hech qanday moddiy/nomoddiy rag'batlar, manfaatlar, mukofotlar yoki shunga o'xhash takliflar bermaganligini, ya'ni moliyaviy mukofotlar, mol-mulk, mulkka bo'lган huquqlarni taklif qilmagan, va'da qilmagan, taqdim etmagan bo'lishi, bu bo'yicha harakatlar qilmaganligini, shuningdek, talab ham qilmaganligini ifodalaydi va kafolatlaydi.
- 16.3 Har bir Tomon o'z pudratchilari, maslahatchilari, agentlari va Shartnama bo'yicha uning nomidan ish yurituvchi boshqa shaxslarning O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlarning korruptsiyaga qarshi kurash normalariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya qilishlarini ta'minlashi shart.
- 16.4 Shartnomada har bir Tomon boshqa Tomon xodimlarini/vakillarini ularning mustaqilligini cheklashga, qaramlikka olib keladigan, ma'lum bir ishlarni amalga oshirish uchun harakatlar boshlashiga undaydigan har qanday yo'l bilan, shu jumladan pul, sovg'alar, o'z sohasi bo'yicha ishlarni (xizmatlarni) bepul bajarish va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan rag'batlantirishni rad etadi. Xodimning rag'batlantiruvchi tomon/mijoz foydasiga amalga oshiradigan harakatlari sifatida quyidagilar tushuniladi:
- a) boshqa kontragentlarga nisbatan asossiz ustunliklar berish;
  - b) har qanday kafolatlar berish;
  - c) mavjud tartiblarni tezlashtirish;
  - d) xodim tomonidan o'z xizmat vazifalari doirasida amalga oshirilgan, lekin Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo'lган boshqa harakatlar.
- 16.5 Agar ma'lum bir Tomon Shartlarning ushbu bo'limi bo'yicha har qanday majburiyatlarning buzilishi sodir bo'lган yoki sodir bo'lishi mumkin deb hisoblash uchun asosga ega bo'lsa, bu Tomon boshqa Tomonni ushbu Shartlarning 17.3, 17.4, 17.5-bandlarida nazarda tutilgan tartibda darhol yozma ravishda xabardor qilishga majburdir. Yozma bildirishnomada Tomon boshqa Tomonga, uning affillangan (manfaatdor) shaxslari, xodimlari, vakolatli shaxslari yoki vositachilari tomonidan korruptsiyaga qarshi qonunlarning buzilishi sodir bo'lганligini yoki sodir bo'lishi mumkinligini tasdiqlovchi faktlarni yoki shubhalanishga yetarlicha asos bo'ladijan materiallarni ilova qilgan holda taqdim etishi shart.
- 16.6 Shartlarning ushbu bo'limi bo'yicha har qanday qoida(lar) buzilganligi to'g'risidagi bildirishnomasi o'lgan Tomon bildirishnomani o'rganib chiqishi va o'rganish natijalari to'g'risida yuboruvchi Tomonni bildirishnomasi olingen kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida ma'lumot berishi shart.
- 16.7 Tomonlar Konfidensiallik tamoyillariga rioya qilgan holda Shartlarning ushbu bo'limida qayd etilgan qoidalaring buzilishi faktlari bo'yicha lozim darajada hal qilish ishlarini amalga oshirishi va keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo'lган ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish uchun samarali choralarini qo'llashni kafolatlaydi. Tomonlar bunda bildirishnomasi yuborgan Tomon uchun ham, bu Tomonning qonunbuzarliklar haqida xabar qilgan alohida xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar bo'lmasligini kafolatlaydi. Tomonlardan biri tomonidan Shartlarning ushbu bo'limi qoidalari buzilganligi fakti tasdiqlangan taqdirda, boshqa Tomon Shartnomasi bekor

qilinadigan sanadan kamida 10 (o'n) kalendar kuni avval yozma xabarnoma yuborish orqali Shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqlidir.

## **17. Boshqa holatlar.**

- 17.1 Ushbu Sharqlar bo'yicha talab qilinadigan barcha bildirishnomalar yozma ravishda o'zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim qilinadi.
- 17.2 Mijoz tomonidan Bankni xabardor qilish quyidagi usullardan biri orqali amalga oshirilishi mumkin:
- 1) Shaxsan topshirish va qabul qilingangligi to'g'risida imzolangan tasdiqnomalar olish;
  - 2) pochta xizmati orqali yetkazib berish;
  - 3) agar Bank va Mijoz o'rtaida alohida kelishuv mavjud bo'lsa, elektron pochta yoki uyali aloqa («SMS» qisqa xabarlar xizmati) yordamida bildirishnomalar yuborish;
- 17.3 Bank Mijozni quyidagi usullardan biri orqali xabardor qilishi mumkin:
- 1) e'lonni rasmiy veb-saytda, Bank binosidagi «Ma'lumot» taxtasida va «Internet Banking iDBA» tizimida («Yangiliklar» bo'limida) joylashtirish;
  - 2) agar Bank va Mijoz o'rtaida alohida kelishuv mavjud bo'lsa, elektron pochta orqali, shuningdek uyali aloqa («SMS» qisqa xabarlar xizmati) yordamida bildirishnomalar yuborish;
  - 3) agar Bank va Mijoz o'rtaida alohida kelishuv mavjud bo'lsa, mijoz tomonidan Bankdan ijaraga olingan pochta qutisiga xabarni joylashtirish;
  - 4) shaxsan topshirish va qabul qilinganligi to'g'risida imzolangan tasdiqnomalar olish;
  - 5) pochta xizmati orqali yetkazib berish.
- 17.4 Ushbu Sharqlarning 17.3-bandiga muvofiq berilgan barcha bildirishnomalar qabul qilingan hisoblanadi:
- a) rasmiy veb-saytda, Bank binosida va «Internet Banking iDBA» tizimida e'lon qilinganda – e'lon qilingan kunida;
  - b) elektron pochta orqali, SMS shaklda yuborilgan taqdirda – jo'natilgan kunida;
  - c) shaxsan yoki pochta xizmati orqali topshirilganda – qabul qilingan kunda.
- 17.5 Xabarnomalar Shartnomada ko'rsatilgan Bank va Mijoz manziliga yuboriladi. Tomonlar manzillar, telefon raqamlari va boshqa muhim ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida bunday o'zgarishlardan keyin 10 (o'n) kalendar kunitdan kechiktirmagan holda bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladilar. Har qanday o'zgartirishlar Mijozdan yozma xabarnoma / bildirishnomalar olgandan keyingina Bank uchun qonuniy kuchga ega bo'ladi. Bank o'z xohishiga ko'ra Mijozdan mavjud o'zgarishlar bo'yicha bildirishnomalar qilishi mumkin, bu holatda Mijoz bunday o'zgarishlar bo'yicha yozma ma'lumotlarni Bankka taqdim etish majburiyatini oladi.
- 17.6 Ta'sis hujjatlari va (yoki) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, Mijoz zudlik bilan Bankka bu bo'yicha yangi hujjatlarning nuxxalarini taqdim etish majburiyatini oladi.
- 17.7 Agar Shartnoma tuzilganidan so'ng va uning bekor qilinishidan avval, Tomonlar uchun Shartnoma tuzish paytida amalda bo'lganlardan tashqari majburiy bo'lgan qoidalarni belgilovchi Qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lsa, ushbu Sharqlar qabul qilingan Qonun hujjatlari bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Bunda Qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa mustasno.
- 17.8 Mijoz va uchinchi shaxslar o'rtaida nizolardan kelib chiqadigan har qanday protsessual harakatlar bilan bog'liq sudda yoki tinch yo'l bilan kelishuv bo'yicha Bankka qo'yilgan yoki qo'yilishi mumkin bo'lgan harajatlar Mijozning hisobidan to'lanadi, bunda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno. Bundan tashqari, Bankning Mijoz bilan bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqqan, Tariflarda aniq ko'rsatilmagan barcha boshqa sarf va xarajatlar

Mijozga schyot-faktura shaklida taqdim etiladi. Mijoz bunday schyot-faktura(lar)ni darhol to'lashi kerak.

- 17.9 Ushbu Shartlar Bank tomonidan o'zbek, rus va ingliz tillarida tuzilgan va har bir tildagi versiyaning mazmunan haqiqiyligi va birxilligi imkon qadar ta'minlangan. Agar ular o'rtasida nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa yoki aniqlansa, ingliz tilidagi versiya ustunlik qiladi.

**18. Bank manzili va rekvizitlari.**

- 18.1 Bosh ofis "KDB Bank O'zbekiston" AJ

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Buxoro k., 3-uy

Telefon: (+998 78) 120-80-00

E-mail info@kdb.uz

STIR: 202167236

MFO: 00842

SWIFT kodi: KODBUZ22

- 18.2 "KDB Bank O'zbekiston" AJ, Oybek filiali

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100015, Toshkent sh., Oybek k., 32-uy

Telefon: (+998 78) 140-06-30

E-mail info@kdb.uz

STIR: 207045749

MFO: 01065

SWIFT kodi: KODBUZ22